

Turonbankning ishlab chiqarish III-seminari

"Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti B-bino 109-auditoriyasida "Iqtisodiyot" fakultetida tahsil olayotgan "TURONBANK" ATB stependiat talabalari va professor o'qituvchilari uchun 12.10.2024 yilda "TURONBANK" ATB Muammoli aktivlar bilan ishlash departamenti direktori Boboyev Zafar Nematovich bilan "Turonbank ATBda muammoli aktivlar bilan ishlash" mavzusida 2024-2025 o'quv yili uchun rejalashtirilgan III-seminar tashkil qilindi.



Ma'ruzachi tomonidan hozirgi kunda *Chakana biznes yo'nalishida ajratilgan muddati o'tgan qarzdorliklarni dastlabki bosqichida undiruvni tashqil qilish va avtomatlashtirish*, "Turonbank" ATB tizimida "Soft & Hard collection" bosqichida undirish strategiyasini aniqlash, Aniqlangan "Soft & Hard collection" bosqichi bo'yicha avtomatlashtirish va takomillashtirish ishlari to'g'risida ma'lumotlar taqdim etdi. Ma'ruza yuzasidan talaba yoshlari o'zlarini qiziqtirgan savollariga atroflicha javoblar oldilar.



**"Iqtisodiyot" fakulteti dekani o'rinnbosari
U.Xoliyorov ma'lumoti**

Universitet matbuot xizmati